O‘RTA OSIYONING MIL.AVV. VI–IV ASRLAR TARIXINI TIKLASHDA YOZMA MANBALARNING O‘RNI

Rejapov Doniyor
Tadqiqotchi, Urganch
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23085084

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘rta Osiyoning mil. avv. VI–IV asrlar tarixini o‘rganish va tarixiy jarayonlarni qayta tiklashda yozma manbalarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Avesto”, qadimgi eroniy, yunon, rim hamda mahalliy yozma manbalarda O‘rta Osiyo hududlari, siyosiy tuzilmalari, xalqlari va tarixiy voqealariga oid ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi. Yozma manbalarda saqlanib qolgan ma’lumotlarning qisqa, parchali va ayrim hollarda noaniq xususiyatiga qaramay, ularni zamonaviy tadqiqotlar hamda arxeologik dalillar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali mazkur davr tarixini nisbatan xolisona yoritish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, XX asr boshlaridan boshlab yozma manbalarni ilmiy o‘rganish jarayoni va keyingi davrlarda ularni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan izlanishlar tahlil qilinadi. Yunon va rim mualliflari asarlaridagi ma’lumotlarning tarixiy-geografik hamda siyosiy jihatlari tadqiqotchilar qarashlari asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, mil. avv. VI–IV asrlar, yozma manbalar, “Avesto”, yunon manbalari, rim manbalari, qadimgi Eron manbalari, arxeologik manbalar, tarixiy rekonstruksiya, tarixiy geografiya.

THE ROLE OF WRITTEN SOURCES IN RECONSTRUCTING THE HISTORY OF CENTRAL ASIA IN THE 6TH–4TH CENTURIES BCE

Rejapov Doniyor
Researcher, Urgench

Abstract. This article analyzes the role of written sources in studying and reconstructing the history of Central Asia in the 6th–4th centuries BCE. The study examines information concerning the territories of Central Asia, their political structures, peoples, and historical events preserved in the Avesta, ancient Iranian, Greek, Roman, and local written sources. Despite the fragmentary, concise, and in some cases ambiguous nature of the information preserved in these sources, a comparative analysis of written evidence with modern scholarly research and archaeological data makes it possible to provide a relatively objective reconstruction of the history of this period. The article also examines the development of scholarly research on written sources since the beginning of the 20th century and subsequent attempts to corroborate their information through archaeological investigations. The historical-geographical and political aspects of the information provided by Greek and Roman authors are analyzed in light of the interpretations proposed by researchers.

Keywords: Central Asia, 6th–4th centuries BCE, written sources, Avesta, Greek sources, Roman sources, ancient Iranian sources, archaeological sources, historical reconstruction, historical geography.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

РОЛЬ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ В РЕКОНСТРУКЦИИ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В VI–IV ВЕКАХ ДО Н. Э.

Реджапов Данияр
Исследователь, Ургенч

Аннотация. В статье анализируется роль письменных источников в изучении и реконструкции истории Центральной Азии в VI–IV веках до н. э. В исследовании рассматриваются сведения о территориях Центральной Азии, её политических образованиях, народах и исторических событиях, сохранившиеся в «Авесте», древнеиранских, греческих, римских и местных письменных источниках. Несмотря на краткость, фрагментарность и в некоторых случаях неопределённость содержащихся в них сведений, их сопоставительный анализ с современными научными исследованиями и археологическими данными позволяет относительно объективно осветить историю рассматриваемого периода. Также анализируется процесс научного изучения письменных источников, начавшийся в начале XX века, и последующие исследования, направленные на подтверждение содержащихся в них сведений посредством археологических материалов. Историко-географические и политические аспекты сведений, представленных в трудах греческих и римских авторов, рассматриваются с учётом научных интерпретаций исследователей.

Ключевые слова: Центральная Азия, VI–IV века до н. э., письменные источники, «Авеста», греческие источники, римские источники, древнеиранские источники, археологические источники, историческая реконструкция, историческая география.

O'rta Osiyoning mil.avv. VI-IV asrlardagi tarixi "Avesto", eron, yunon va rim va mahalliy yozma manbalarida yozib qoldirilgan. Ulardagi ma'lumotlar qisqa va noaniq tarzda saqlanib qolgan bo'lsada, tadqiqotchilar tomonidan ular o'rganilib, arxeologik ma'lumotlar bilan qiyosiy solishtirgan holda tahlil qilinib, o'sha davr tarixini ob'ektiv yoritishga imkon berilgan. Bu davrga oid yozma manbalarni tadqiq qilish ishlari XX asrning boshlaridan boshlangan va XX asrning o'rtalaridan boshlab, arxeologik tadqiqot ishlari bilan asoslashga harakat qilingan. Yunon va Rim yozma manbalarida berilgan ma'lumotlar I.N.Xlopin va I.V.Pyankovlar tomonidan keng tahlil qilingan[1].

O'rta Osiyo tarixi bo'yicha ko'proq yozma manbalar Baqtriya to'g'risida bo'lib, antik davr mualliflari Baqtriyaga katta qiziqish bilan qaraganlar. Buning asosiy sababini uning geografik joylashuvi, qudratli davlatga aylanganligi deb ko'rsatishimiz mumkin, lekin antik davr mualliflari asarlariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, Baqtriya davlatining afsonaviy boyliklari, oltinlari ham yevropalik tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan[2].

Qadimgi Baqtriya davlati Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan bo'lib, bugungi kunda uning hududiga O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, Tojikiston respublikasining janubiy–g'arbiy va Afg'onistonning shimoli–sharqiy hududlari kiradi. Baqtriya davlatini Amudaryo ikki qismga ajratgan

[1] Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии ; Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции. – С. 62.
[2] Кошеленко Г.А., Мунчаев Р.М., Гаипов В.А. Археология Афганистана в дни мира и дни войн. – Москва: Институт археологии РАН, 2014. – С. 24 -31.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bo‘lib, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i tomoni Shimoliy Baqtriya, chap qirg‘og‘idagi hududlar esa, tadqiqotchilar tomonidan janubiy Baqtriya deb ataladi.

Sug‘d davlati ham O‘rta Osiyoda tashkil topgan qadimiy davlatlarda biri bo‘lib, u Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzalarida shakllangan. Sug‘d davlatining chegarasi g‘arbda Buxoro vohasi bilan, sharqda Xisor tog‘lari, janubda Qashqadaryo va Qo‘xitang oralig‘i hududlari va shimol tomonda Nurota tizmalari bilan chegaralangan[3]. Tabiiy–geografik joylashuviga qarab davlatni tadqiqotchilar uch qismga ajratishadi: janubiy Sug‘d – Qashqadaryo vohasiga, markaziy Sug‘d – Samarqand vohasiga va g‘arbiy Sug‘d – Buxoro vohasiga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda Sug‘d davlati hududidiga O‘zbekistonning Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlari to‘g‘ri keladi.

Qadimgi Xorazm davlati Amudaryoning quyi havzasida shakllangan bo‘lib, uning hududi janubda Turkmaniston Respublikasining Birota (Darg‘onota) viloyati, shimolda Orol dengizi, g‘arb tomonda Sariqamish havzalari va Uzboy yuqori oqimlarigacha bo‘lgan hududlarni, sharqda esa, janubiy Oqchadaryo deltalarigacha bo‘lgan hududlarni egallagan[4]. Bugungi kunda qadimgi Xorazm hududiga Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Turkmanistonning shimoli–sharqiy qismlari to‘g‘ri keladi.

Baqtriya davlatining siyosiy tarixi haqidagi dastlabki ma’lumot “Avesto”ning “Videvdat” qismida bayon qilingan. Unda Axuramazda xudosi tomonidan yaratilgan 16 ta mamlakat qatorida sanab o‘tilgan: “To‘rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan, baland bayroqli go‘zal Baxdiga asos soldim”[5]. Demak, “Avesto”da Baqtriya o‘sha davrning qudratli davlatlardan biri bo‘lganligi ko‘rsatilgan. Bu davr mil.avv. I ming yillikning boshlari bo‘lib, mil. avv. VI asrda ham Baqtriya davlati jahon miqyosidagi qudratli davlatlardan biri bo‘lgan deb hisoblashimiz mumkin. Buni antik davr mualliflari asarlaridagi ma’lumotlar asoslaydi. Mil.avv. V asrda yashagan Knidlik Ktesiyning ma’lumoti Sitsiliyalik Diodorning “Tarixiy kutubxona” asarida saqlanib qolgan. Unda: “Baqtriana o‘lkasi, ko‘p shaharlarga ega, ularning orasida asosiysi poytaxt shahardir. U Baqtra deb nomlanadi va boshqa shaharlardan o‘zining ulug‘vorligi va arkining qudratliligi bilan ajralib turardi. U yerda Oksiart podsholik qiladi ...”[6].

Sug‘d davlati “Avesto”da “Gava Sug‘uda” tarzda berilgan va Axuramazda tomonidan sanab o‘tilgan davlatlar qatorida ikkinchi mamlakat bo‘lib berilgan. Insonlarning yaxshi yashashi uchun qulay davlat sifatida ta’riflangan, uning daryolarida kemalarning yurishi ham yozib qoldirilgan[7].

“Avesto” kitobidagi ma’lumotlar tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil qilingan bo‘lib, undagi ko‘pgina voqealar va tabiiy geografik sharoitlar qadimgi Xorazm bilan bog‘lashgan. “Avesto”ning “Mixr–yasht–X” bo‘limida kemalar qatnaydigan mamalakat qatorida sanab o‘tilgan[8]. Aryonam Vaychax, Aryoshayona, Vaxvi Daitiya daryosi, Chaytasta, Vorukash ko‘llari, Urva va Qanxa shaharlari ham qadimgi Xorazm hududi bilan bog‘langan.

---

[3] Сагдуллаев А.С. Ўзбекистон тарихи илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи. 1996. – Б. 47.
[4] Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. / История государственности Узбекистана. Т.I. – С. 107.
[5] Авесто. “Закон против дэвов”. (Видевдат). Адаптированный перевод, исследование и комментарии Ртвеладзе Э.В., Саидова А.Х., Абдуллаева Е.В. – СПб: Изд.Политехнического университета, 2008. – С.67.
[6] Диодор Сицилийкий.Историческая библиотека. Перевод. Д.В. Мещанский, М.Огинский и др. 2.1.6. www. simposium.ru
[7] Авеста. Избранные гимни. Из Видевдата. Перевод И. Стеблин -Каменского. –Душанбе: Адиб. 1990. – С.57.
[8] Авеста. Избранные гимни. – С. 57.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Тошкент: Шарқ, 2001.
2. Геродот. История. – Москва: Наука, 1972.
3. Ктесий. Персидская история. – Москва: Наука, 1977.
4. Арриан. Поход Александра. – Москва: Наука, 1993.
5. Страбон. География. – Москва: Наука, 1964.
6. Курций Руф Квинт. История Александра Македонского. – Москва: Наука, 1993.
7. Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. – Москва: Наука, 1989.
8. Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе: Дониш, 1975.
9. Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции: общие данные о стране: название и территория. – Душанбе: Дониш, 1982. – 62 с.
10. Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции: источниковедческий анализ. – М.: Восточная литература РАН, 1997. – 344 с.
11. Пьянков И.В. «История Персии» Ктесия и среднеазиатские сатрапии Ахеменидов в конце V в. до н.э. // Вестник древней истории. – 1965. – № 2. – С. 35–50.
12. Пьянков И.В. «Саки» (содержание понятия). // Известия Академии наук Таджикской ССР. Отделение общественных наук. – 1968. – № 3.
13. Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии (античность и раннее средневековье). – Ашхабад: Ылым, 1983.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.